



## KORRUPSIYANING JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

**Karimboyeva Dilobar To'rayevna**

*Shayxontohur tuman politexnikumi*

*Tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolaning mazmini mavzuiylik va qisqacha falsafiy qarashlar hamda chuqur tahliliy manbalarga asoslanib yozilgan. Korrupsiya insoniyat tarixida eng qadimiy illatlardan biri hisoblanib, u davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lif, sog'liqni saqlash, huquq-tartibot organlari kabi jamiyatning muhim jabhalariga chuqur ildiz otgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda korrkorrupsiya ko'pincha tizimli xarakter kasb etadi va bu holat ijtimoiyadolat, tenglik, samaradorlik kabi tamoyillarga putur yetkazadi. Shuningdek, u taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo'lgan inson kapitalini yemiradi, jamiyatda motivatsiyaning pasayishiga, malakali kadrlarning tizimdan chetlanishiga olib keladi. Mazkur maqolada korrkorrupsyaning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'siri, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari keng tahlil qilinadi, shuningdek, unga qarshi kurashishning samarali usullari muhokama qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, neopotizm, qonun ustuvorligi,adolat, sud, ta'lif, jamiyat, taraqqiyot, iqtisodiyot.

Korrupsiya – bu davlat mansabdor shaxslarining o'z vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanishidir. U turli shakllarda namoyon bo'ladi: pora olish yoki berish, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish, nepotizm (qarindoshurug'chilik), manfaatlar to'qnashuvi va boshqalar. Korrupsiya "yashirin iqtisodiyot"ni rag'bathantiradi, davlat resurslarining noto'g'ri taqsimlanishiga olib keladi va iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi. Korrupsiya — bu davlat yoki jamoat vakolatlarini shaxsiy manfaat yo'lida suiiste'mol qilishdir. U huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va axloqiy nuqtai nazardan jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi. Korrkorupsiya nafaqat shaxsiy daromad olish maqsadida qonunlarni buzish bilan bog'liq, balki davlat boshqaruvi tizimining izdan chiqishiga sabab bo'ladigan tizimli illatdir.

Korrupsiya har bir jamiyatda turli shakllarda namoyon bo'ladi. Uning asosiy sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Qonun ustuvorligining sustligi;
- Davlat xizmatchilarining nazoratsizligi;





- Shaffoflik va ochiqlikning yetishmasligi;
- Past maoshlar va ijtimoiy himoyaning yetarli emasligi;
- Fuqarolik jamiyatni institutlarining zaifligi;
- Siyosiy iroda yetishmasligi.

Siyosiy korrupsiya yuqori darajadagi davlat arboblari va siyosatchilar tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, saylovlarda ovozlarni sotib olish, mansab taqsimotida qarindoshlikni ustun qo‘yish, byudjet mablag‘larini siyosiy partiyalar foydasiga yo‘naltirish kabilar bunga misol bo‘ladi. Siyosiy korrupsiya davlat boshqaruvining izdan chiqishiga va demokratik tamoyillarning buzilishiga olib keladi. Bu holatda korrupsiya butun tizimga chuqur ildiz otgan bo‘ladi. Ya’ni, pora olish va berish "norma"ga aylangan, unga qarshi kurashish mexanizmlari ishlamaydi yoki o‘zlarini ham korrupsiyalashgan. Bunday holatda oddiy insonlar korrupsiyaga aralashmasdan hech qanday xizmatdan foydalana olmaydi.

Xalqaro korrupsiya turida xorijiy kompaniyalar va davlatlar manfaatdor tomonlar sifatida qatnashadilar. Masalan, xalqaro tenderlarda pora berish orqali yutib chiqish, xalqaro tashkilotlarning loyihalarini noqonuniy yo‘llar bilan o‘zlashtirish bunga kiradi. Xalqaro korrupsiya global xavf sifatida tan olinmoqda va unga qarshi xalqaro konvensiyalar qabul qilingan. Bu korrupsiyaning eng xavfli shakllaridan biridir. U hukumat tepasidagi iqtisodiy yoki siyosiy guruhlar tomonidan amalga oshiriladi. Ular davlat resurslarini o‘z foydasiga ishlatadi, strategik tarmoqlarni nazorat qiladi, qonunlarni o‘z manfaatiga moslashtiradi. Bu jamiyatdagi tabaqalanishni kuchaytiradi.

Neopotizm — qarindosh-urug‘larni lavozimga tayinlash. Klientelizm esa siyosiy tarafdarlik evaziga manfaatlar almashuvi. Bu holatlar meritokratiya (layoqat asosida tayinlash) prinsipiiga ziddir va davlat tizimini samarasiz qiladi.

Korrupsiya o‘zining har xil shakl va ko‘rinishlari bilan jamiyat taraqqiyotiga tahdid soladi. Uning turlarini chuqur o‘rganish va tushunish unga qarshi samarali kurash choralar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Har bir jamiyat, har bir davlat korrupsiyaning mohiyatini anglab, unga qarshi qat’iy pozitsiyada bo‘lishi zarur.

Qonun ustuvorligi — har qanday demokratik jamiyatning asosiy poydevoridir. Biroq korrupsiya ushbu tamoyilni izdan chiqaradi. Masalan, sud tizimida poraxo‘rlik keng tarqalganda, jinoyatchilar jazodan qutulib ketadi, begunohlar esa adolatsizlik qurbaniga aylanadi. Bu holat jamiyatda "kuchlilik haqli" degan noto‘g‘ri qarashlarning kengayishiga olib keladi. O‘z navbatida, aholining



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qonunlarga bo‘lgan ishonchi pasayadi, bu esa huquqbuzarliklar sonining ortishiga sabab bo‘ladi.

Sud, prokuratura va advokatura tizimlarida korrupsiyaning mavjudligi jamiyatni demokratik qadriyatlardan yiroqlashtiradi. Bu esa ijtimoiy norozilik, ishonchsizlik va ko‘rinmas inqirozga olib keladi. Adolatli raqobat har qanday bozor iqtisodiyotining yuragi hisoblanadi. Biroq, korrupsiya ushbu mexanizmni ishdan chiqaradi. Agar biror kompaniya pora evaziga davlat buyurtmalarini qo‘lga kiritayotgan bo‘lsa, bu raqobatchilarning bozorga kirish imkoniyatini cheklaydi. Masalan, infratuzilma loyihalarida halol tenderlar o‘rniga poraxo‘rlik asosida tanlovlар o‘tkazilsа, past sifatli, lekin ko‘p pora bergen kompaniyalar yutib chiqadi. Bu esa davlat mablag‘larining samarasiz sarflanishiga olib keladi. Oqibatda yo‘llar, ko‘priklar, maktablar yoki shifoxonalar sifatjihatidan ya roqsiz holga keladi. Bu kabi holatlar ijtimoiy ishonchni susaytiradi va iqtisodiy inqirozni chuqurlashtiradi.

Investitsiyalar har qanday mamlakat iqtisodiy o‘sishining asosiy manbaidir. Biroq, xorijiy sarmoyadorlar avvalo mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va qonuniylikka qarab qaror qabul qiladilar. Agar davlatda korrupsiya yuqori bo‘lsa, investorlar o‘z kapitalini xavf ostiga qo‘yishni istamaydi.

Xalqaro hisobotlarga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurashish ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan davlatlarga ko‘proq investitsiyalar jalb qilinadi. Misol uchun, Singapur va Daniya kabi davlatlar shaffof boshqaruv tufayli katta hajmdagi sarmoyalarni o‘ziga tortmoqda.

Korrupsiya bor joyda sarmoyador ishonchsizlik hissi bilan yashaydi — litsenziyalarni olish, yer ajratish, qurilish ruxsatnomalari olishda noqonuniy to‘lovlar zarur bo‘lsa, investor boshqa mamlakatga yo‘naltiriladi. Korrupsiya ijtimoiy adolat prinsipini buzadi. U aholining kambag‘al qatlamini yanada zaiflashtiradi. Ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimida poraxo‘rlik keng tarqalganda, faqat boylar sifatli xizmatga ega bo‘ladi, kambag‘allar esa chetda qoladi. Ta’lim tizimida diplomlar pora evaziga olinadigan bo‘lsa, bilimli va layoqatli yoshlar e’tiborsiz qoladi. Bu esa kelajakda malakasiz mutaxassislarining ko‘payishiga olib keladi, jamiyatda intellektual tanazzul yuzaga keladi. Shuningdek, korrupsiya byudjet mablag‘larining noto‘g‘ri taqsimlanishiga olib keladi — ijtimoiy sohalarga kam pul ajratiladi, aholini qo‘llab-quvvatlash choralarini yetarli bo‘lmaydi. Bu esa ijtimoiy beqarorlikni kuchaytiradi.

Korrupsiyaning eng og‘ir ijtimoiy oqibatlaridan biri bu — odamlarning davlatga va uning institutlariga bo‘lgan ishonchining yemirilishidir. Har qanday fuqarolik jamiyati davlat va xalq o‘rtasidagi ishonch asosida rivojlanadi. Agar odamlar sud, prokuratura, politsiya, ta’lim yoki sog‘liqni saqlash tizimlarida faqat pora bilan

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



ishlash mumkin, deb hisoblasa, ular qonuniy yo'llardan umidin i uzadi. Bu esa fuqarolik faolligining pasayishiga, ommaviy noroziliklarning avj olishiga, va hatto siyosiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Aholining davlat xizmatlaridan noroziligi kuchaysa, davlat tizimlari faoliyati samarasiz bo'ladi. Oqibatda, migratsiya, ishsizlik, jinoyatchilik, fuqarolik inqirozi kuchayadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun kompleks va tizimli yondashuv zarur. Quyidagilar samarali yo'llardan hisoblanadi:

- **Huquqiy islohotlar:** Jinoyat kodeksida korrupsiyaga oid bandlarni kuchaytirish, jazolarning muqarrarligini ta'minlash.
- **Davlat xizmatlarida shaffoflik:** Elektron hukumat tizimini keng joriy qilish, ochiq tenderlar o'tkazish.
- **Jamoatchilik nazorati:** Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash, ommaviy axborot vositalarining erkinligini ta'minlash.
- **Ta'lim va madaniyat:** Yosh avlodda halollik, adolat, qonuniylik tushunchalarini targ'ib qilish.
- **Xalqaro hamkorlik:** Xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda monitoring, tajriba almashinuvi va texnik yordam ko'rsatish.

Korrupsiya – bu faqat moliyaviy yo'qotish emas, balki jamiatning ma'naviy yemirilishiga olib keluvchi xavfli illatdir. U qonun ustuvorligini izdan chiqaradi, ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi, iqtisodiy taraqqiyotni sekinlashtiradi va xalqning davlatga bo'lgan ishonchini yemiradi.

Korrupsiyaga qarshi samarali kurashish uchun esa kompleks yondashuv talab qilinadi. Bunga qonunchilik islohotlari, institutlarning mustaqilligi, shaffof boshqaruvi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, va eng muhim — xalqning faolligi va birdamligi muhim o'rinn tutadi. Faqat jamiatning barcha qatlamlari bir yoqadan bosh chiqarib, halollikni qadrlasa, kelajakda korrupsiyasiz taraqqiyot sari qadam qo'yish mumkin bo'ladi.

### **Foydalaninlgan adabiyotlar**

1. "Korrupsiya va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari" (Sh. Tursunov) 2015-yil.
2. "Korrupsiya va uning oldini olishning huquqiy mexanizmlari" (A. Xo'jaev) – 2017-yil
3. "Korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat boshqaruvi" (M.Ibroximov) 2018-yil
4. "Korrupsiyaning jamiat taraqqiyotiga ta'siri" (S. Fayzullayev) – 2019-yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qonun hujjatlari.
6. Davlat statistika qo'mitasi va tegishli iqtisodiy tahliliy materiallar.

